

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ALIXANOVA DILBAR MUXTAROVNA

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA O‘QUV LEKSIK
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02– Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi

Avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contens of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Alixanova Dilbar Muxtarovna

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida o‘quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

Алиханова Дильбар Мухтаровна

Совершенствование методики развития учебных лексических компетенций будущих учителей английского языка.....23

Alikhanova Dilbar Mukhtarovna

Improving the methodology of developing educational lexical competencies in future English teachers45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ALIXANOVA DILBAR MUXTAROVNA

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA O‘QUV LEKSIK
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02– Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped 4721 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) hamda “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azizova Qizlarxon Mashrabovna

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Komilov Nodir Boqijonovich

pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Badelbayeva Yulduzbonu Orifjonovna

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertasiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/30.11.2024.Ped.26.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86; e-mail: tdpu.kengash@edu.uz).

Dissertasiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, CHilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86.

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «___» _____ dagi ___ - raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.A.Abdullayeva

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor.

N.M.Ahmedova

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash kotibi, p.f.f.d, dotsent.

Sh.A.Atadjanova,

Ilmiy daraja beruvchi
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. dotsent,

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon kasbiy amaliy til ta'limi tizimining baynalmilallashuvi, chet tillarini o'qitish mazmuni va uslublarining doimiy yangilanib borishi ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga yangi talablarni qo'yib, pedagogik tizimni shaxs va jamiyatning mavjud va potensial ehtiyojlarini yuqori sifatli o'quv jarayonini tashkil qilishga yo'naltirmoqda. UNESCO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "talabalarining xorijiy til, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni takomillashtirish, muloqotda hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish"¹, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonlarini takomillashtirish, o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan o'quv-leksik faoliyatida terminologiya va maxsus lug'at zhirasidan samarali foydalanish, uni ta'lim oluvchilarga o'rgatish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Jahon hamjamiyatida yaratilgan pedagogik sharoitlar tayyorlanayotgan kadrlarni global intellektual mehnat bozorida raqobatbardoshlikka yo'naltirish va mutaxassis uchun uning intellektual salohiyatini doimiy ravishda yangilab turish orqali o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatini o'stirishga mo'ljallangan. Bu esa zamonaviy jamiyat talabarlari asosida mutaxassislarning amaliy va lingvistik o'zini o'zi takomillashtirish, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida o'quv-leksik kompetensiyalarni rivojlantirish darajasiga bevosita bog'liq. Kompetentli yondashuvga yo'naltirilgan yangi avlod standartlarida aks etgan talablarning ta'minlanishi sharoitida bo'lajak mutaxassislarning umumiy va kommunikativ leksik kompetensiyalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganligi bilan birga, ularning leksik zahirasini maqsadli shakllantirish, fanga oid kategoriyalarni egallashlari, o'quv materiallarini idrok etishlari, ingliz tilidagi grammatik hodisalarni anglab-tushunishlarida ularning o'quv-leksik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida til sohasidagi davlat siyosati barcha tillar, ularda so'zlashuvchilar soni va yashash joyi xususiyatidan qat'i nazar, teng huquqlilik tamoyillariga asoslanishida namoyon bo'lmoqda. Ushbu siyosatni amalga oshirish doirasida chet tillarini, shu jumladan ingliz tilini biznes va sheriklik aloqalari tili sifatida ko'p funksiyali o'qitish ta'minlanmoqda. Shu sababli, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida o'quv va leksik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim malaka xususiyatlaridan biri sifatida baholanib, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis tayyorlashda katta ahamiyatga ega. "Xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish va ta'lim sifatini baxolash asosida oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifati va samaradorligini oshirish"² ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada bo'lajak mutaxassislarning leksik kompetensiyalarini rivojlantirish, o'qituvchi va talabalar

¹ IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 * IAU HORIZONS. https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni / <https://lex.uz/docs/5841063>

orasida leksik va muloqot munosabatlarini takomillashtirish, ularning kasbiy faolligini oshirish muhim bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida chet tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy - ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizning xorijiy til masalalari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan qator olimlari, jumladan, L.T.Axmedova, N.M.Axmedova, J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, D.R.Pulatova, K.Dj.Riskulova, T.K.Sattorov, D.U.Xoshimova, O'.X.Xoshimovlar tomonidan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish, chet tillarini o'qitishda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari tadqiq etilgan.

MDH olimlaridan I.G.Agapov, G.Isayeva chet tillarni o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv qoidalari; leksik aspektlarini rivojlantirish muammosi N.V.Bagramova, M.R.Bazina, L.V.Bankevich, B.V.Belyayev, A.A.Bogatov, M.A.Burlakov kabi tadqiqotchilar hamda boshqa bir qator olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan; M.A.Ashxotova, S.A.Abdigaliyev, K.V.Aleksandrov, O.A. Bibin chet tilini o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy qoidalari.

Xorijiy tillarni o'qitishda chet til ta'limida nutq ko'nikmalari va grammatik kompetensiyalarni o'rgatishning ta'limdagi roli, o'rni va amaliy ahamiyatiga oid masalalar xorijiy tadqiqotchilar M.Byram, M.Canale, Van Ek, D.Hymes, S.Jeanette, B.Pekoz, M.Vince, Elaine Walker va bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari R. Carter, V.K. Bhatia, A. Brookes, M.Canale, B.H. Douglas, J.Harmer, R.Harrison, S.Holden, C.Livingston, S.J.Savignon, A.Stoof tomonlaridan tadqiq etgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni bo'lib, pedagogik tajriba-sinovda Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika universitetining Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 336 nafar talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Nazariy tahlil usullari: o'rganilayotgan muammoga oid psixologik-pedagogik adabiyotlarni o'rganish, talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi muammosi ustida ish olib borayotgan pedagoglarning nashrlarini tahlil qilish; emperik tadqiqot usullari: anketalar, testlar, suhbatlar, kuzatishlar; tajriba natijalarini qayta ishlashning statistik usullari; talabalarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha maxsus ishlarni tashkil etish bo'yicha ishlar eksperimental tadbirlarda olib borilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari o'zini-o'zi korreksiyalash faolligini oshirishga qaratilgan leksik xatolar ustida refleksiya qilish orqali interferensiyani sekin-asta kamaytirish va baholashga asoslangan kompetentli, integrativ kontekstual, kontrastiv va kommunikativ yondashuvlardan samarali foydalanish, semantik jihatdan notanish leksik birlik shakli va mazmunini tasniflash hamda o'quv leksik xususiyatlarni monitoring qilishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli yondashuv va tamoyillarning didaktik birligini asoslashga qaratilgan leksik birliklarining stilistik xususiyatlarini aniqlash, o'quv faoliyati va o'qituvchining

o'qitish faoliyati munosabatlari uyg'unligini adekvat ta'minlash hamda o'quv lug'ati va faoliyatni rivojlantirish vazifalarini uyg'unlashtirish va uning samaradorligini eksperimental ravishda diagnostika qilish va baholash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi loyiha asosida va hamkorlikda o'qitish, muammoga asoslangan o'qitish usullarini qo'llashda leksik xatolar kamayishi, interferensiya holatlari bartaraf etilish, so'z boyligi kengayishi, nutq ravonligi oshishiga ko'ra o'quv leksikografik amaliyotning funksional mosligi va o'quv lug'ati bilan faoliyat uyg'unligi barqarorligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi olingan ma'lumotlarni nazariy pedagogik izohlash, tajriba natijalarini rasmiylashtirish, tadqiqot xulosalarini monitoringini yuritish hamda so'z boyligini mantiqiy fikrlash asosida ratsional kengaytirib borish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan;

taqdim etilgan tadqiqot materiallaridan oliy ta'lim muassasalari, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi mutaxassislari uchun darslik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, grammatik va leksik tushunchalarni o'zlashtirishda o'qitish samaradorligini oshirish, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning mustaqil bilim olish va o'zini o'zi rivojlantirish jarayonida uslubiyatchilar tomonidan didaktika kurslarini boyitish, umumiy pedagogika va xususiy o'qitish uslubiyatida foydalanish mumkin;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid baholash mezonlar ishlab chiqildi;

60110900-Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) ta'limi yo'nalishi talabalari uchun "Practice of language aspects" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan va nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi amalga oshirilgan yondashuvlar va tamoyillar, foydalanilgan nazariy va amaliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, analitik va eksperimental ishlanmalarning samaradorligi matematik statistik metodlar yordamida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati amaliy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik bilimlarni rivojlantirish, ilg'or xalqaro tajribalar orqali chet tilini o'qitish mazmuni, mohiyati va pedagogik ta'lim texnologiyalari va leksik-grammatik bilimlarni oshirish, nutq jarayonlarini faollashtirish, nutqiy va vizual muloqotga ehtiyojni loyiha faoliyatiga korrekktiv modellashtirishning takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarining 60110900-Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) ta'limi yo'nalishi uchun o'quv dasturlari mazmuni tadqiqot natijalari asosida takomillashtirilgan, ta'lim tizimi rivojini o'rganishda matn bilan ishlash, qiyosiy-tahliliy usullarni interfaol va raqamli texnologiyalar bilan identivligini sinxronlashtirish, til tuzish, o'quv faoliyati va

o'qituvchining o'qitish faoliyati munosabatlari uyg'unligini adekvat ta'minlash yo'llarining ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik bilimlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari o'zini-o'zi korreksiyalash faolligini oshirishga qaratilgan leksik xatolar ustida refleksiya qilish orqali interferensiyani sekin-asta kamaytirish va baholashga asoslangan kompetentli, integrativ kontekstual, kontrastiv va kommunikativ yondashuvlardan samarali foydalanish, semantik jihatdan notanish leksik birlik shakli va mazmunini tasniflash hamda o'quv leksik xususiyatlarni monitoring qilishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid takliflardan "Practice of language aspects" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 8-maydagi 11-05-2978/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik bilimlarni rivojlantirishning didkatik imkoniyatlari aniqlangan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli yondashuv va tamoyillarning didaktik birligini asoslashga qaratilgan leksik birliklarining stilistik xususiyatlarini aniqlash, o'quv faoliyati va o'qituvchining o'qitish faoliyati munosabatlari uyg'unligini adekvat ta'minlash hamda o'quv lug'ati va faoliyatni rivojlantirish vazifalarini uyg'unlashtirish va uning samaradorligini eksperimental ravishda diagnostika qilish va baholash asosida takomillashtirishga doir takliflar "Practice of language aspects" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 8-maydagi 11-05-2978/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik bilimlarni rivojlantirishning lingvistik va leksikogrammatik komponentining mazmun-funksional jihatlarini rivojlantirish imkoni oshirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi loyiha asosida va hamkorlikda o'qitish, muammoga asoslangan o'qitish usullarini qo'llashda leksik xatolar kamayishi, interferensiya holatlari bartaraf etilish, so'z boyligi kengayishi, nutq ravonligi oshishiga ko'ra o'quv leksikografik amaliyotning funksional mosligi va o'quv lug'ati bilan faoliyat uyg'unligi barqarorligini ta'minlash asosida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirishning ilmiy-amaliy asoslari takomillashtirishga oid takliflardan "Practice of language aspects" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 8-maydagi 11-05-2978/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, korrektiv yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik bilimlarni rivojlantirish tamoyillarini takomillashtirish imkoni yaratilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi olingan ma'lumotlarni nazariy pedagogik izohlash, tajriba natijalarini rasmiylashtirish, tadqiqot xulosalarini monitoringini yuritish hamda so'z boyligini mantiqiy fikrlash asosida ratsional kengaytirib borish asosida takomillashtirishga doir ma'lumotlardan "Practice of language aspects" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-

yil 8-maydagi 11-05-2978/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik bilimlarni rivojlantirishning nazariy modelini, baholash mezonlari va darajalash indikatorlarini takomillashtirish imkoni oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 138 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobda kompetensiya yondashuvi nuqtayi nazarida xorijiy til leksik kompetensiyaning o'ziga xos xususiyatlari, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik omillari, lug'at bilan ishlashga asoslangan xorijiy til o'quv-leksik kompetensiyalarining faoliyat bosqichlari tahlil qilingan.

Chet tilini o'rganishda uning leksik jihati hamda chet tili lug'atini samarali o'zlashtirish muammosi doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning e'tiborida bo'lib kelgan. Chunki bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning xorijiy til bo'yicha kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda aynan leksik kompetensiyaning shakllanganlik darajasi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Mazkur kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi yoki til birliklaridan foydalanishda semantik va leksik normalarning buzilishi nutq jarayonida kommunikativ jihatdan tushunarsiz yoki noto'g'ri ifodalangan fikrlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham sifat jihatidan shakllangan leksik ko'nikmalar chet tilidagi muloqot jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy sharti sifatida ko'riladi.

Mahalliy olimlarimiz M.Narbayeva fikriga ko'ra, faol leksik va grammatik minimum birliklari soniga qaramay, talaba leksik birliklar va grammatik tuzilmalarning minimal to'plami bilan cheklanib qolib faqatgina o'zining malakali bayonotini tushunishi mumkin, ammo ma'ruzachini tushunish uchun faqat minimalni bilish yetarli emas, chunki u o'z nutqida oddiy va murakkab tuzilmalar va so'z birikmalaridan foydalanishi mumkin. N.M.Ahmedova tadqiqotida, talabalar yozish

ko'nikmasida uchraydigan kamchiliklarni ko'rsatish jarayoniga leksik birliklarning kamligi va grammatik, leksik, fonetik, imlo xatolar qilishlarini takidlab o'tadi. D.Xolmurodova fikriga ko'ra lug'atni boyitish talabaniing til ongida semantik aloqalarning ortishiga ko'maklashadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish, chet tili nutqining leksik jihatini samarali o'zlashtirish muammolari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning doimiy e'tiborini jalb qilib kelmoqda. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi rivojlanishining turli bosqichlarida nutqiy-kommunikativ faoliyatning aynan leksik aspektlarini rivojlantirish muammosi N.V.Bagramova, M.R.Bazina, L.V.Bankevich, B.V.Belyayev, A.A.Bogatov, M.A.Burlakov kabi tadqiqotchilar hamda boshqa bir qator olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etgan.

N.V.Bagramova ta'kidlashicha talabalarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni talabalar o'quv-bilim ko'nikmalarini rivojlantirishning o'zi maqsad sifatida emas, balki talabalar shaxsiyatini rivojlantirish, ularda samarali o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish va shu asosda kasbiy faoliyatlarida yuqori natijalarga erishishlarini ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. B.V.Belyayev leksik kompetensiya nafaqat real voqelikni, balki insonning tasavvuri va ijodiy fikrlash jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan xayoliy voqelikni ham aks ettirish imkoniyatiga egadir deb ta'kidlaydi. N.I.Jinning ta'kidiga ko'ra, so'zlar atrofimizdagi barcha narsalar, hodisalar, jarayonlar, mavjud va mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan barcha obyektlar nomlarini ifodalovchi asosiy lingvistik vositalardir. A.A.Bogatov fikriga ko'ra, chet tilidagi lug'at tarkibini o'zlashtirish jarayoni talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir.

Tahlil natijalari chet el va milliy pedagogikada muammoga doir yondashuvlarning umumiyliigi va agar talaba ma'lum shaxsiy xususiyatlar va xulq-atvor ko'nikmalariga ega bo'lsa, unda u muvaffaqiyatli ishlay oladi, ular orasida uning o'quv-leksik kompetentligi ajralib turadi. Natijada tadqiqot doirasida "o'quv", "leksik" va "kompetensiya" tushunchalarining quyidagi ta'riflari aniqlashtirildi:

o'quv - chet tilini mustaqil o'zlashtirish bo'yicha umumiy metodologiyani ifodalaydi va talabalarning o'quv faoliyatini uning asosiy tarkibiy qismlarida — motivatsion (shu jumladan, o'quv maqsadlarini belgilash), ijro etuvchi (faoliyatning texnologiyasi) hamda nazorat va baholash bosqichlarida boshqarish qobiliyatini tavsiflaydi;

leksik - shaxsning ma'lum bir tilda so'z boyligini bilishi va tushunishi tushuniladi. Bu nafaqat so'zlarning ma'nosini bilishni, balki ularni turli kontekstlarda to'g'ri ishlata olishni ham o'z ichiga oladi;

kompetensiya - tushunchasi bilim, ko'nikma va faoliyat usullarini o'z ichiga oladi, kompetensiyada – shaxsning xususiyatlari va shakllangan kompetensiyalar asosida bajarilgan faoliyatga shaxsiy munosabati paydo bo'ladi.

Ingliz tilini o'qitishda talabalarda o'quv leksik kompetensiyani (ya'ni, ingliz tilidagi so'z boyligini o'zlashtirish va uni to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini) rivojlantirish jarayonida interferensiya hodisasi ko'p uchraydi. Bu hodisa talabaniing ona tili yoki ilgari o'zlashtirgan boshqa tillaridan ingliz tiliga "ta'sir o'tishi" orqali

yuzaga keladi. Quyida interferensiyaning ba'zi asosiy turlari va ularning leksik kompetensiyaga salbiy ta'siri keltirilgan:

so'zma-so'z tarjima qilish (literal translation). Talaba ona tilidagi iboralarni ingliz tiliga bevosita tarjima qiladi, bu esa notabiiy yoki xatolik bilan to'ldirilgan jummalarni yuzaga keltiradi. Masalan:

uzbekcha: Menga issiq bor.

inglizcha noto'g'ri: I have hot.

to'g'risi: I am hot.

so'z tanlashdagi xatolar (lexical choice errors). Talaba sinonimlarni yoki yaqin ma'noli so'zlarni chalkashtirib qo'yadi, chunki ular o'zbek tilida bir xil tarjimaga ega bo'lishi mumkin. Masalan:

look, see, watch — barchasi o'zbek tiliga qaramoq deb tarjima qilinadi, lekin kontekstga qarab qo'llaniladi.

so'zlarning noto'g'ri shakllarini ishlatish (morphological interference). Ona tilidagi so'z yasash modellari ingliz tiliga o'tkaziladi. Masalan: work so'ziga -er qo'shimchasini o'zboshimchalik bilan qo'shib, manager-er kabi noto'g'ri so'zlar yasash.

ko'p ma'noli so'zlar bilan chalkashish. Ingliz tilidagi so'zlar bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin, bu esa talabaning chalkashishiga sabab bo'ladi. Masalan: book – kitob (narsa), bron qilish (fe'l).

kolokatsiyalar va idiomalarni noto'g'ri qo'llash. O'zbek tilidagi iboralarning ingliz tilida to'g'ri muqobillarini topa olmaslik yoki noto'g'ri ishlatish. Masalan: make a photo (noto'g'ri) o'rniga take a photo (to'g'ri).

Interferensiya hodisasi o'quv leksik kompetensiyani rivojlantirishda jiddiy psixolingvistik to'siq hisoblanadi. Bu hodisani kamaytirish uchun til o'qituvchisi leksik materialni kontekstual, kontrastiv, va kommunikativ yondashuvlar orqali o'rgatishi zarur. Ona tili va ingliz tilining farqli leksik tizimlari o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilish, leksik xatolar ustida refleksiya qilish orqali interferensiyani sekin-asta kamaytirish mumkin.

Quyida ingliz tilini o'qitishda o'quv leksik kompetensiyani rivojlantirishda qo'llaniladigan kompetentli, integrativ kontekstual, kontrastiv va kommunikativ yondashuvlar va ular qanday qilib interferensiyani kamaytirishga yordam berishi ko'rsatilgan.

Leksik kompetensiyani rivojlantirishda kompetentli yondashuv til birliklarini bilish (knowledge), ularni nutqda qo'llash ko'nikmasi (skills) va kommunikativ vaziyatlarda moslashuvchan foydalanish kompetensiyasi (competence) uyg'un holda rivojlantiriladi. Integrative yondashuv – bu bir nechta metodik yondashuvlarning uyg'unligida til o'rganishni tashkil etish bo'lib, bunda til komponentlari (leksika, grammatika, fonetika) mantiqiy bir butun holatda beriladi. Kontekstual yondashuvda leksik birliklar sun'iy emas, balki tabiiy kontekstda o'rgatiladi. Bu talabaning ingliz tilidagi real nutqni tushunish va unga javob bera olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Kontrastiv yondashuvda o'rgatilayotgan til (ingliz tili) va ona tili (o'zbek tili) taqqoslab o'rganiladi. Bu metod talabalarga interferensiyani tanib olish va undan saqlanishda katta yordam beradi. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi –

talabani til orqali samarali muloqot qila olishga o'rgatishdir. Leksika esa ana shu muloqot vositasi sifatida o'zlashtiriladi.

O'quv leksik kompetensiya tuzilishi(integrativ kontekstual, kontrastiv va kommunikativ)ni inobatga olgan holda, o'z-o'zini korreksiyalash faoliyatining tajribasi quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi(1-jadval):

1-jadval


O'quv leksik kompetensiya tuzilishi mazmunida o'z-o'zini korreksiyalash faoliyati tajribasining yo'nalishlari

Yo'nalishlar	Qo'llanilishi
Leksik xatolarni tanib olish	Talaba o'z nutqida yoki yozuvida noto'g'ri ishlatilgan so'z yoki iborani farqlay oladi. Bunda kontrastiv tahlil (ona tili va ingliz tili o'rtasida) asosida tahlil yuritish o'rgatiladi.
Mazmun asosida aniqlash	Talaba leksik birlikni jumladagi yoki matndagi kontekstdan kelib chiqib baholaydi. Xato so'z o'rniga mos sinonimni yoki boshqa iborani mustaqil tanlaydi.
Lug'at va manba bilan ishlash	Talaba o'z xatolarini aniqlaganidan so'ng, lug'at, online resurslar, glossariylar orqali to'g'ri variantni topadi.
Muloqotdagi refleksiya	Og'zaki nutqda xato qilganidan so'ng o'zi xatoni tan olib to'g'rilashga harakat qiladi (self-repair). Bunda kommunikativ kompetensiya bilan birga leksik moslik ham rivojlanadi.
Yozma nutqda tahliliy o'zgartirish	Talaba yozgan matnni qayta ko'rib chiqib, leksikani aniqlik, aniqlovchanlik va mantiqiylik nuqtai nazaridan tahrirlaydi.
O'zini-o'zi korreksiyalashni qo'llab-quvvatlovchi usullar	
Error logs (xato daftarchalari)	Talabalar o'z xatolarini yozib boradi va davriy ko'rib chiqadi.
Peer correction bilan taqqoslash	Guruhdagi boshqa talabalar bilan solishtirib tahlil qilish.
Self-assessment checklists	Leksik jihatdan to'g'ri ishlatish uchun tekshiruv ro'yxatlari.
Contextual substitution drills	Matndagi noto'g'ri so'zlarni to'g'risi bilan almashtirish mashqlari.

Ushbu tajriba turlari talabalarda o'quv faoliyatini mustaqil boshqarish ko'nikmasini shakllantirib, ularning chet tilini samarali o'rganishi va o'z-o'zini doimiy ravishda rivojlantirib borishi uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv-leksik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tarkibiy jihatdan tarbiyaviy, kognitiv yoki tarbiyaviy-kognitiv komponentlarga ajratish mumkin. Ushbu komponentlarning zaruriyati faoliyat strategiyasi va taktikasini amalga oshirish uchun aniq operatsional bazaning mavjud bo'lishi bilan belgilanadi. Chunki har qanday kognitiv harakatning ichki mazmuni uning bajarilishiga asos bo'lgan operatsiyalar yig'indisidan tashkil topadi. Shu bilan birga, faoliyatning morfologik birligi hisoblangan "harakat" mustaqil faoliyat darajasiga o'sishi yoki aksincha, "operatsiya" darajasiga o'tishi mumkinligi ham qayd etiladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'quv leksik kompetensiyalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish orqali ko'rib chiqilishi mumkin(1-rasm).



1-rasm. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'quv- leksik kompetensiyalarining o'ziga xos xususiyatlari

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari o'quv leksik kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqoridagi xususiyatlarga e'tibor berishlari o'qitish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv-leksik kompetensiyalarni rivojlantirishning yuqorida tavsiflangan mazmuni, interferensiya hodisasi, tarkibiy jihatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, mazkur konsepsiyani chet tilini mustaqil ravishda o'zlashtirishga yo'naltirilgan bilimlar, ko'nikmalar hamda amaliy tajribalar tizimi sifatida aniqlashtirish mumkin. Ushbu tizim, shuningdek, shaxsiy sifat – kognitiv mustaqillikni ham o'z ichiga olib, ingliz tilini sifatli o'zlashtirish va talabalar faoliyatini samarali tashkil etish ham leksik birlikning semantic mazmuni anglash imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Semantik jihatdan notanish leksik birlik shakli va mazmunini anglash (idrok etish va tushunish) faoliyatini bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida o'quv-leksik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Semantikaning adekvat usullaridan foydalanish – noto'g'ri tushunishning oldini olishning muhim vositasidir. Leksik birlik semantikasini chuqur anglashni ta'minlovchi lingvoanalitik operatsiyalar: leksik birlikning ichki semantik shaklini ochish – bu ko'nikma so'zning tanish elementlari bilan taqqoslash, uning morfologik yoki etimologik tahlili asosida rivojlanadi; leksik birlik semantikasini aniqlashtirish va chuqur anglash. Shunday qilib, ushbu semantik tahlil, fonetik va semantik komponentlarning uyg'unligida amalga oshirilgan o'quv va kognitiv harakatlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida o'quv-leksik kompetensiyalarni chuqur, tizimli va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobda kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazarida xorijiy til o'quv-leksik

kompetensiyalarning mazmuni, o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli, o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi o'z aksini topgan.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi – mavjud o'quv leksikografik amaliyotining tadqiq etilishi hamda uning o'quv-leksik asosiy vazifalariga muvofiqligini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun, avvalo, ingliz tilida leksik kompetensiyani rivojlantirishda asos bo'lib xizmat qiladigan o'quv va kognitiv harakatlar tarkibini aniqlash muhimdir. Bu jarayonda, o'quv-leksik vositalari ta'limiy va ma'lumotnoma funksiyalarini samarali amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashi lozim.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy modeli yondashuv va tamoyillarning didaktik birligini asoslashga qaratilgan, leksik til birliklarini (Grammatik, fonetik, toponimlar) va leksik birliklarining stilistik xususiyatlarini aniqlash, o'quv faoliyati va o'qituvchining o'qitish faoliyati munosabatlari uyg'unligini adekvat ta'minlash mavjud o'quv leksikografik amaliyotini o'quv jarayonining asosiy funksiyalariga muvofiqligi ko'ra o'quv lug'ati va faoliyatini rivojlantirish vazifalarini uyg'unlashtirish zarurdir.

Mazkur modelda(2-rasm) yondashuvlar va tamoyillar didaktik jihatdan uyg'unlashgan bo'lib, ular: o'qituvchi faoliyatining metodik asosini tashkil etadi; o'quv materialini tanlash, topshiriqlarni loyihalash va baholash mezonlarini belgilashda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi; bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida leksik kompetensiyani nafaqat o'zlashtirish, balki uni boshqa shaxslarga samarali o'rgata olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida o'quv leksik kompetensiyasini rivojlantirish modeli ilmiy asoslangan, tizimli va kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Yondashuv (kompetensiyaviy, integrative, kontestual, kontrastiv va kommunikativ) va tamoyillar (semantik, chastota(tez-tez), zaruriylik, moslik) o'rtasidagi didaktik birlik esa bu modelning samaradorligini ta'minlaydi va kasbiy tayyorgarlik sifatini oshiradi.

O'quv-leksik kompetensiyani rivojlantirishda o'quv leksik kompetensiya xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilish zarur. Shuningdek, til birliklari – leksik, grammatik va so'z yasaliş birliklari o'zaro bog'liq bo'lib, til tizimining turli darajalari bilan ma'lum munosabatlarni rivojlantirishi lozim. Chet tilini o'zlashtirish jarayonida leksik birliklarni samarali o'zlashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

motivatsion bosqich – o'rganilayotgan leksik birliklarning ahamiyatini anglash va ulardan foydalanish ehtiyojini rivojlantirish;

indikativ bosqich – leksik birliklarning semantik, grammatik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish;

amaliy bosqich – leksik birliklarni muloqotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish;


nazorat va baholash bosqichi – leksik birliklarni qo'llash samaradorligini baholash va to'g'rilash mexanizmlarini ishlab chiqish.

Yuqoridagi bosqichlarda olib borilgan tajriba-sinov ishlaridan indikativ bosqichga quyidagicha misol berish mumkin:

Indikativ bosqich – leksik birliklarning semantik, grammatik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish. Misol: Talabalarga "advice" va "advise" soʻzlarining farqini tushuntirish:

Semantik: "Advice" – bu ot, "advise" – feʼl.

Grammatik: "Advice" "uncountable" (hisoblanmaydigan), "advise" esa feʼl sifatida ishlatiladi (masalan, "She advised me to study harder").



2-rasm. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli

Pragmatik: "Advice" kengroq kontekstda ishlatiladi (masalan, "He gave me some useful advice"), "advise" esa ko'proq rasmiy holatlarda ishlatiladi (masalan, "I would advise you to reconsider").

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida o'quv leksik kompetensiyasini rivojlantirishning leksik til birliklarini (Grammatik, fonetik, toponimlar) va leksik birliklarining stilistik xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning to'rtalasi (Grammatik, fonetik, toponimlar, stilistik) ham talabalar til ko'nikmalarini rivojlantirishda alohida rol o'ynaydi. Quyida grammatik shakllar va toponimlarning leksikani o'zlashtirishdagi o'rni va ularni o'rganishning metodikasi haqida ma'lumot keltirilgan.

Grammatika va leksika bir-birini to'ldiruvchi komponentlar bo'lib, talabalar ingliz tilidagi grammatik shakllarni to'g'ri qo'llash orqali o'z leksik kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Grammatik shakllar, o'z navbatida, leksik birliklarning kontekstda to'g'ri ishlatilishini ta'minlaydi.

Grammatik shakllarning o'rni:

verb tense (fe'l zamonlari) talabalar to'g'ri fe'l zamonlarini ishlatish orqali vaqt va holatlarni ifodalashni o'rganadilar. Masalan, "I have visited London" va "I visited London" orasidagi farqni tushunish.

Word formation (so'z yasash), Grammatik shakllar leksik birliklarning yangi shakllarini yaratishda ham muhimdir. Masalan, so'zga suffikslar qo'shish orqali yangi so'zlar yasash: "dangerous" (danger + -ous), "beauty" (beautiful + -y).

Toponimlar va o'quv leksik birliklar.

Toponimlar va ularning grammatik shakllari ko'pincha maxsus grammatik shakllarda ishlatiladi. Misol uchun, ba'zi toponimlar "the" artikli bilan ishlatiladi, boshqalari esa yo'q: "the United States", "the Netherlands", "France". Bu talabalarni grammatikani to'g'ri qo'llashga o'rgatadi.

Toponimlarni o'rganish metodikasi talabalarga mashhur shaharlar, davlatlar va tabiiy obyektlar nomlarini o'rgatish, bu atamalarni muloqotda qo'llashni rag'batlantirish. Shuningdek, toponimlar nafaqat geografik joylarni, balki ularning tarixiy va madaniy ahamiyatini ham anglatadi. Misol uchun, "Paris" yoki "Rome" so'zlari nafaqat shahar nomi, balki bu joylarning madaniy xususiyatlarini ifodalaydi.

Fonetik xususiyatlar.

Ingliz tilida ko'plab so'zlar yozilishida bir xil bo'lishiga qaramay, talaffuzda farq qiladi. Bu farqlar til o'rganuvchilari uchun muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Misollar:

"Through" (θru:) - "th" tovushi voiceless, "ough" esa "oo" sifatida talaffuz qilinadi.

"Tough" (tʌf) - "ough" tovushi "uff" sifatida talaffuz qilinadi.

"Though" (ðu) - "ough" tovushi "ou" sifatida talaffuz qilinadi. Shu sababli, talaffuz va yozuvni to'g'ri o'rgatish muhimdir.

Shuningdek, xorijiy til leksik birliklarining stilistik xususiyatlari talabalarni tilni to'g'ri va samarali ishlatishga o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Leksik birliklar nafaqat grammatik to'g'rilik, balki ma'no, ton, muhit va kontekstga qarab turlicha ishlatiladi. Talabalarda stilistik xususiyatlarni o'rganish, ularning tildagi aniq va

